

DON URUG'CHILIGIDA XARAJATLAR TARKIBI, HISOB VA KALKULYATSIYA OB'EKTLARINING XUSUSIYATLARI

Bozorboyeva Zarnigor Gulmirza qizi

TDAU 2- bosqich tayanch doktoranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10374033>

ARTICLE INFO

Received: 06th December 2023

Accepted: 13th December 2023

Online: 14th December 2023

KEY WORDS

Klaster, don, hisob, kalkulyatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada don urug'chiligida xarajatlar tarkibi, hisob va kalkulyatsiya ob'ektlarining xususiyatlari keltirilgan.

Dunyoda bug'doy eksport qiladigan 6 yetakchi davlat bor. Ular, Rossiya, Kanada, AQSh, Avstraliya, Ukraina, Yevropa Ittifoqi hisoblanadi. FAOning dastlabki prognozlariga ko'ra jahonda 2023 yilda don mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va ularning 2023-2024 yillarda iste'moli, erishilgan 873,0 mln. tonnadan 1,7 foizga o'sishi mumkin. 2023 yil mayida don mahsulotlariga baho indeksining o'rtacha qiymati 129,7 punktni tashkil etib, o'tgan yilning rekord ko'satkichidan 43,9 punkt (25,3%) kam; bunday qisqarish bug'doy va ozuqa don ekinlari xalqaro bozor baholarining pasayishi bilan bog'liq¹.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida g'allachilik yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev raisligida 2021 yil 27 oktyabr kuni qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida, 2022 yildan g'allachilik klasterlari va fermerlarga bug'doyni bozor narxida to'liq erkin sotish huquqi berilishini ma'lum qildi². Shuningdek, klaster va fermer xo'jaliklari 3 yil davomida har gektardan 2,5 tonna g'allani birja savdolariga chiqarishi talab etiladi. Qolgan hosilni esa to'g'ridan-to'g'ri sotish huquqi berilishi³ ta'kidlandi. Bunday ulkan, keng qamrovli va mas'uliyatli vazifalarni ro'yobga chiqarish ular yechimiga ilmiy-uslubiy, normativ-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy yondashuvlarni taqazo etadi. Xususan, g'allachilik klasterlari tarkibiga kiruvchi fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish, hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda boshqaruv hisobining ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Lekin, bevosita g'allachilik klasteri tizimidagi va xususan, g'alla urug'chiligida xarajatlar hisobi masalalari o'rganilmagan. Shunday qilib, don urug'chiligi sohasida innovatsion faoliyat xarajatlari hisobi, nazorati va tahlilining rolini oshirish hamda mazkur faoliyatning axborot ta'minotidagi munozarali masalalar mazkur tadqiqot mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

¹ <https://www.fao.org/worldfoodsituation/csdb/ru/>

² <https://daryo.uz/k/2021/10/27/>

³ Шу манба



G'allachilik mahsulotlari yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish, mahsulot tannarxini to'g'ri hisoblash, buxgalteriya hisobi, ichki nazorat va tahlilning oldidagi muhim vazifalardan sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu tarmoqda, xususan uning urug'chligida bir qancha muammolar hozirgi kunda o'z yechimini kutmoqda. Bu esa, xarajatlarni turkumlash, baholash, hisobga olish va hisobotda aks ettirish, samaradorligini tahlil qilishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qilmoqda.

Tovar-moddiy zaxiralarning dastlabki hisobiga oid hujjatlarda shakllanadigan ko'rsatkichlar, mehnat sarfi, mahsulot chiqishi, shuningdek, urug'lik sarfi, ishlatilgan o'g'itlar qiymati, saqlash joylariga tashib keltirilgan urug'lik don qiymati, don urug'chligida xarajatlar va mahsulotlar chiqishi to'g'risidagi axborotlar shakllanadigan hisob registrlarining ma'lumotlari alohida diqqatga sazovor.

Don ekinlari urug'larini yetishtirish va saqlash xarajatlarning optimal darajasini aniqlash uchun ichki hisob hujjatlari asosida shakllantirilgan ko'rsatkichlarga alohida ahamiyat berish zarur. Ko'rsatkichlarning bu guruhida quyidagi hujjatlardan olinadigan axborotlarga katta e'tibor qaratishni tavsiya qilamiz:

- agrotexnik hisob axborotlari, chunki ularda ma'lum bir ekin uchun bajariladigan ish turlari to'g'risidagi ma'lumotlar, 1 ga ekin maydoniga, 1 ts mahsulot va hosilning rejadagi umumiy hajmiga to'g'ri keladigan xarajat normalari va normativlari to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtiriladi;

- don ishlab chiqarish texnologiyasi, kelgusi yil hosili uchun qilinadigan xarajatlar, urug'lik don yetishtirish va sotishga doir reja ko'rsatkichlari to'g'risidagi axborotlar tizimlashtiriladigan texnik-iqtisodiy hujjatlar, biznes-rejalar, ishlab chiqarish rejalar, shuningdek, don urug'chligida ishlab chiqarish xarajatlari smetasi va mahsulotlar tannarxi kalkulyatsiyasi.


Xarajatlarning hisob ob'ektlari bo'yicha to'planadigan axborotlar don urug'chligida tannarx shakllanishi ustidan amalga oshiriladigan nazoratning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Umuman, qishloq xo'jaligidagi va xususan don urug'chligida ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibini aniqlash uchun hozirgi vaqtda «Fermer xo'jaliklarida dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash bo'yicha tavsiyanoma»⁴dan qisman foydalanib kelinmoqda. Lekin, ushbu tavsiyalarda ko'zda tutilgan xarajatlarning kalkulyatsiya moddalari faqat yil oxiridagina mahsulotlarning to'la ishlab chiqarish tannarxini aniqlash uchun mo'ljallangan. Urug'chilik xo'jaliklari amaliyotida esa, xarajatlarni rejalashtirish va hisobga olish jarayoni 4 ga (ekishgacha bo'lgan davr, ekish davri, vegetatsiya davri, terim-yig'im davri) bo'linib, bu agrotexnologik jarayonlarni to'liq aks ettirmaydi.

Hisob va nazoratni tashkil etishda urug'lik don yetishtirish va saqlashning texnologik jarayonlari va mahsulot turlariga doir xarajatlar to'g'risidagi axborotlar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ular don ekinlari xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiyalash ob'ektlarini shakllantirishning asosini tashkil etadi. Shu boisdan ham, urug'lik don

⁴ Р.Д.Дусмуратов, Г.Б.Турсункулова. Фермер хўжаликлариди деҳ-қончилиқ маҳсулотлари таннархини ҳисоблаш бўйича тавсиянома. ТошДАУ Нашриёт-таҳририят бўлими, Тошкент – 2010, - 32 б.

yetishtirishda xarajatlar hisobi, kalkulyatsiya va ichki nazorat ob'ektlarini quyidagicha trkumlash tavsiya etiladi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Urug'lik don yetishtirishda xarajatlar hisobi, kalkulyatsiya va ichki nazorat ob'ektlari⁵

Xarajat moddalarining namunaviy nomenklaturasidan foydalanishga turlicha yondashuvlar shu bilan izohlanadiki, ularda don ekinlari urug'larini ishlab chiqarishdagi texnologik, tashkiliy va boshqa o'ziga xosliklarni to'liq hisobga olinmagan. Aniqrog'i, u butun qishloq xo'jalik korxonasi bo'yicha va faqat don ekinlarini oziq-ovqat uchun yetishtirish bilan bog'liq xarajatlarni aniqlashga yo'naltirilgan.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan «Fermer xo'jaliklarida dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash bo'yicha tavsiyanoma»da yetishtirilayotgan don ekinlari urug'larining sifati yaxshilanishini ta'minlaydigan xarajatlar ko'zda tutilmagan. Don urug'ligi sifatini ta'minlash urug'lik don yetishtirish va ularni saqlash texnologiyasiga rioya qilish bilan bog'liq har bir jarayon bo'yicha tadbirlar o'tkazishni talab qiladi.

Mazkur muammoni hal etish uchun xarajat moddalarining namunaviy ro'yxatiga «Urug'lik don yetishtirishda sifatni ta'minlash xarajatlari» kompleks moddasi (ishlab chiqarish jarayonlari kesimida) kiritilishini tavsiya qilamiz (1.2-jadval)

Urug'lik don yetishtirishda sifatni ta'minlash xarajatlarning tarkibi (tavsiya)⁶

⁵ Normativ va ilmiy-uslubiy manbalarni hamda amaliyotni y'rganiш natijasida dissertant tomonidan ishlab chiqilgan.

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan



Ishlab chiqarish tsikllari	«Urug'lik don yetishtirishdagi sifatni ta'minlash xarajatlari» moddasi
Kuzgi-qishki ishlar	1. Tuproq unumdorligini yaxshilash va yer-tuproq resurslarining ekologik xavfsizligini ta'minlashga doir xarajatlar; 2. Agrotexnika talablaridan chekinish, shu jumladan, mineral o'g'itlar solishning ilmiy asoslangan normalariga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar; 3. Yuqori sifatli ekish materiallari sotib olish xarajatlari.
Bahorgi ishlar	1. Agrotexnika talablaridan chekinish, almashlab ekishning buzilishi va don ekinlarining navini yangilash jarayonlarining yo'qligi natijasida kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar. 2. Tabiatni muhofaza qilish, yer-tuproq resurslari ekologiyasi bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish xarajatlari.
Bahorgi-yozgi ishlar	1. Agrotexnika talablaridan chekinish, xususan, mineral o'g'itlar solishning ilmiy asoslangan normalariga rioya qilmaslik sababli kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar; 2. Yuqori sifatli ekish materiallari sotib olish xarajatlari.
Hosil yig'ishga doir ishlar	1. Agrotexnika talablaridan chekinish, don ekinlarini yig'ib olish muddatlarining buzilishi bois kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar. 2. Don yig'ib olingandan keyingi sifatsiz ishlov berilishi natijasida kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar.

Urug'chilikda don ekinlarini sifatli yetishtirish xarajatlari to'g'risidagi axborotlarning yetishmasligi nafaqat don ekinlarini yetishtirish jarayoni, balki undan keyingi – saqlash jarayoni uchun ham xos. Ta'kidlash joizki, elevatorlarda xarajatlar hisobini tashkil etishda ham xuddi don ekinlarini yetishtirishdagidek, nomi yuqorida qayd etilgan «Fermer xo'jaliklarida dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash bo'yicha tavsiyanoma»dan foydalanilmoqda. Mazkur uslubiy tavsiyalarda nafaqat donni sifatli saqlash, balki ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi boshqa barcha xarajatlar ham ko'zda tutilmagan.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, Xalq so'zi 2016 yil 14 aprel 73 (6508)-soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi qonuni.- O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari, T.: 2004. №1-6.
3. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri). 2004 yil 26 avgust
4. O'zbekiston Respublikasining «Urug'chilik to'g'risida» gi Qonuni. 16.02.2019 y. O'RQ-1521-son. <https://lex.uz/docs/4202718>.



5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom».-T.: O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari, 1999 y.